



## TARJIMA JARAYONIDA MADANIY MUVOFIQLASHTIRISH (CULTURAL ADAPTATION)

*Ochilova Zeboxon Sohibjon qizi*

*Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti*

*Lingvistika yo'nalishi I-kurs magistranti*

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-9976-7145>

E-mail: [ochilovazebo45@gmail.com](mailto:ochilovazebo45@gmail.com)

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarjima jarayonida madaniy muvofiqlashtirish (cultural adaptation) masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarjimada til birliklari bilan bir qatorda madaniy kontekstni ham hisobga olish zarurligi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, badiiy matnlarni bir til va madaniyat doirasidan boshqa til va madaniyat muhitiga o'tkazishda yuzaga keladigan lingvistik hamda madaniy qiyinchiliklar yoritiladi. Maqolada tarjimon tomonidan qo'llaniladigan adaptatsiya strategiyalari, idiomatik iboralar, metaforalar hamda madaniy realiyalarni moslashtirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari tarjima jarayonida madaniy muvofiqlashtirishning ahamiyatini ochib beradi hamda badiiy matnlarni maqsadli auditoriyaga tushunarli va estetik jihatdan uyg'un shaklda yetkazish bo'yicha tavsiyalarni taklif etadi.*

***Kalit so'zlar:** madaniy muvofiqlashtirish, badiiy tarjima, adaptatsiya, madaniyatlararo tarjima, madaniy kontekst, idiomatik ibora, metafora.*

***Abstract.** This article analyzes the issue of cultural adaptation in the translation process from both theoretical and practical perspectives. The study demonstrates the necessity of considering not only linguistic units but also the cultural context in translation. It also highlights the linguistic and cultural difficulties that arise when transferring literary texts from one language and cultural environment to another. The article examines adaptation strategies used by translators and analyzes methods of rendering idiomatic expressions, metaphors,*



*and cultural realia. The results of the research reveal the importance of cultural adaptation in the translation process and provide recommendations for conveying literary texts to the target audience in a clear and aesthetically harmonious manner.*

**Keywords:** *cultural adaptation, literary translation, adaptation, intercultural translation, cultural context, idiomatic expression, metaphor.*

**Аннотация.** *В данной статье теоретически и практически анализируется проблема культурной адаптации в процессе перевода. В исследовании показана необходимость учета не только языковых единиц, но и культурного контекста при переводе. Также рассматриваются лингвистические и культурные трудности, возникающие при передаче художественного текста из одной языковой и культурной среды в другую. В статье анализируются стратегии адаптации, применяемые переводчиком, а также способы передачи идиоматических выражений, метафор и культурных реалий. Результаты исследования раскрывают значение культурной адаптации в переводческом процессе и предлагают рекомендации по передаче художественных текстов целевой аудитории в понятной и эстетически гармоничной форме.*

**Ключевые слова:** *культурная адаптация, художественный перевод, адаптация, межкультурный перевод, культурный контекст, идиоматическое выражение, метафора.*

**Kirish.** So‘nggi yillarda raqamli kommunikatsiya vositalari — veb-sahifalar, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn reklama va turli blog platformalari — global axborot almashinuvining muhim qismiga aylandi [Manuel Castells, 2010, p. 1]. Bunday muhitda yaratilgan matnlar ko‘pincha turli tillarga tarjima qilinadi va boshqa madaniy auditoriyaga yetkaziladi. Shu sababli tarjima jarayonida faqat lingvistik o‘zgarishlar bilan cheklanib qolish yetarli emas; tarjimon matnning madaniy, ijtimoiy va kommunikativ jihatlarini ham hisobga olishi lozim [Peter Newmark, 1988, p. 1]. Ayniqsa ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjimada madaniy farqlar, nutq uslubi va pragmatik xususiyatlar muhim rol o‘ynaydi. Bunday holatda madaniy



muvofiglashtirish (cultural adaptation) tarjima jarayonining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. U matnni yangi til muhitiga moslashtirish orqali asl kommunikativ ta'sirni saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotda raqamli matnlar tarjimasida madaniy muvofiglashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi [Eugene Nida, 1993, p. 1].

**Metodlar.** Tadqiqot jarayonida taqqoslama va funksional-pragmatik yondashuv metodlaridan foydalanildi. Tahlil uchun ingliz va o'zbek tillaridagi 30 dan ortiq raqamli matn namunalari tanlab olindi. Ular qatoriga veb-sahifalar matnlari, reklama bannerlari hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan postlar kiritildi. Tahlil bir necha bosqichda amalga oshirildi. Avvalo ingliz tilidagi matnlarning kommunikativ maqsadi va auditoriyaga qaratilgan asosiy xabar aniqlab olindi. Keyingi bosqichda ushbu matnlarning o'zbek tilidagi tarjima variantlari o'rganildi va ularning madaniy mosligi baholandi. Shuningdek, har bir tarjimada madaniy muvofiglashtirish strategiyalari qanday qo'llanilganligi ham tahlil qilindi [Jeremy Munday, 2016, p. 1].

**Natijalar.** O'rganilgan materiallar shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidagi raqamli marketing va reklama matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ko'plab madaniy tafovutlar yuzaga keladi. Ko'pincha to'g'ridan-to'g'ri tarjima matnning tabiiyligini yo'qotadi va kommunikativ ta'sirni kamaytiradi. Masalan, ingliz tilidagi "Stay tuned!" iborasi so'zma-so'z tarjima qilinsa mazmun to'liq ifodalanmaydi. Shu sababli u o'zbek tilida "Yangiliklarni kuzatib boring!" tarzida moslashtiriladi. Bu variant kommunikativ maqsadni saqlab qoladi va o'quvchi uchun tabiiyroq eshitiladi. Yana bir misol sifatida "Black Friday Sale" iborasini keltirish mumkin. Bu ibora g'arb madaniyatiga xos savdo an'anasini anglatadi. O'zbek tilida esa u ko'pincha "Katta chegirmalar haftaligi" yoki "Katta chegirmalar aksiyasi" kabi shaklda tarjima qilinadi. Bu holatda tarjimon madaniy muvofiglashtirish orqali matnni mahalliy auditoriyaga tushunarli qiladi [Lawrence Venuti, 2008, p. 1].

**Munozara.** Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli matnlar tarjimasida madaniy muvofiglashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilidagi marketing



matnlari ko‘pincha boshqa madaniy muhit uchun yaratilgan bo‘lib, ularni o‘zbek tiliga aynan shaklda tarjima qilish har doim ham samarali bo‘lmaydi. Sababi — iste’molchilar madaniy qadriyatlarini, kommunikativ uslublar va til normalari o‘rtasidagi farqlardir. Shu sababli tarjimon nafaqat tilni, balki auditoriyaning madaniy xususiyatlarini ham chuqur tushunishi kerak. Madaniy muvofiqlashtirish tarjimonida ijodiy yondashuvni talab qiladi, chunki u ko‘pincha so‘zning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentini emas, balki kommunikativ ta’sir jihatdan mos variantni tanlaydi. Bu jarayon tarjimonni madaniyatlararo vositachi sifatida namoyon qiladi. U asl matnning mazmunini saqlagan holda, uni yangi madaniy muhitga moslashtiradi va o‘quvchi uchun tushunarli shaklda taqdim etadi [Susan Bassnett, 2014, p. 1].

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli matnlar tarjimasida madaniy muvofiqlashtirish muhim strategik omil hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi matnlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, madaniy jihatdan moslashtirilgan tarjimalar auditoriya tomonidan ancha samarali qabul qilinadi. Shu sababli zamonaviy tarjimon nafaqat lingvistik bilimga ega mutaxassis, balki madaniyatlararo kommunikatsiyani amalga oshiruvchi vositachi ham bo‘lishi kerak. Raqamli kommunikatsiya sharoitida muvaffaqiyatli tarjima qilish uchun asosiy mezon — matnning kommunikativ maqsadini saqlagan holda uni maqsadli madaniyatga moslashtirishdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Susan Bassnett. Translation Studies. London: Routledge, 2014.
2. Manuel Castells. The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers, 2010.
3. Jeremy Munday. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. London: Routledge, 2016.
4. Peter Newmark. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.
5. Eugene Nida. Language, Culture and Translating. Shanghai: Foreign Language Education Press, 1993.



6. Lawrence Venuti. *The Translator's Invisibility: A History of Translation*. London: Routledge, 2008.